O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ БД60230100-1.17
2021-yil “___”_____

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021-yil “___”_____

NAVOIYSHUNOSLIK

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o’qitish (o’zbek tili)

SAMARQAND - 2021

Fan dasturi "Mumtoz adabiyot tarixi" kafedrasining 2021-yil ___-_____dagi ___-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **f.f.d. I. Sulaymonov**

Fan dasturi Filologiya fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil __-_____dagi __-sonli bayonnoma).

Fakultet Ilmiy kengashi raisi **f.f.d. A.Pardayev**

Fakultet uslubiy Kengashi raisi **dots. Sh.Mahmadiyev**

"Kelishildi"

SamDU o'quv ishlari

bo'yicha prorektor: **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
NM2009	2021-2022 2022-2023	3-6	9

Fan/modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O‘zbek	4

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami (soat)
	Navoiyshunoslik	120	150	270

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – Alisher Navoiyning boy adabiy va ilmiy merosini o’qitish orqali talabalarni yuksak ma'naviyatli va keng ma'rifat sohibi etib tarbiyalash, ayni paytda, Navoiy ijodini o‘rganish orqali o‘zbek adabiyoti tarixining eng muhim davri haqida har tomonlama bilim hosil qilish, ma'naviy dunyosi mukammal bo‘lishiga ko‘maklashish.

Fanning vazifasi - talabalarga Alisher Navoiyning fenomeni, shaxsiyati, tafakkur dahosi haqida ma'lumot berish;

- Navoiyning komil inson ma'naviyati haqidagi qarashlarini ilmiy jihatdan asoslangan dalillar bilan chuqur o‘rganish va hayotga tatbiq etish usul va vositalarni aniqlash;
- badiiy ijod namunalarini o‘rganish orqali badiiy so‘z shukuhi, o‘zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalanish malakasini shakllantirish;
- Alisher Navoiyning badiiy olami tabiati va qonuniyatlarini tadqiq etish, asarlari mohiyatini teran anglash, to‘g‘ri tahlil va tadqiq etish ko‘nikmasini hosil qilish.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-modul.

ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI

1-mavzu: Navoiyshunoslikka kirish. Alisher Navoiy hayoti va ijodiy merosini o’rganish manbalari. Navoiyshunoslikka kirish. Navoiyshunoslik bosqichlari. Shoir hayoti va ijodini o’rganishda muallif asarlarining ahamiyati. Navoiyshunoslikning ilk manbalari. XX asr o‘zbek navoiyshunosligi. Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o‘rganilishi. Navoiyshunoslik muammolari. Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir hayoti va ijodining manbalari. Navoiy haqida shoirning o‘z asarlaridagi ma'lumotlar. Xondamirning “Makorim ul-axloq”, Faxriy Hirotiyning “Latoifnoma”, Som Mirzoning “Tuhfayi Somiy”, Zayniddin Vosifiyning “Badoyi' ul-vaqoe'” asarlari. Zamondoshlarining asarlarida, XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug‘at, tarixiy va badiiy asarlarda keltirilgan ma'lumotlar.

2-mavzu: Alisher Navoiyning lirik merosi. She'riyatdagi ilk qadamlar. "Ilk devon"ning yaratilishi va o'rganilishi. «Badoyi' ul-bidoya» va "Navodir un-nihoya» devonlari va ularning tadqiqi. Debochada devon tartib berish masalalari. "Xazoyin ul-maoniy" va «Devoni Foniy»ning janr xususiyatlari, mavzu rang-barangligi.

3-mavzu: "Xazoyin ul-ma'oniy" kulliyotining o'rganilishi, badiiyati, janrlar rang-barangligi. *"Xazoyin ul-maoniy" – lirik qomus sifatida.* Kulliyotining yaratilish va o'rganilish tarixi, tarkibiy tuzilishi. Kulliyotdagi janrlar tartibi. "G'aroyib us-sig'ar» devoni. Mavzular doirasi, g'oyalar va timsollar tizimi. "Navodir ush-shabob» devoni. Tasavvufiy va ramziy timsollarning qo'llanilishi. "Badoyi' ul-vasat» devoni. Devon tarkibidagi janrlar badiiyati. «Favoyid ul-kibar» devoni tarkibi. Aruz, qofiya va badiiy san'atlar jihatidan tahlil.

4-mavzu: Xamsanavislik an'anasi, Alisher Navoiy "Xamsa"sining yaratilishi. "Hayrat ul-abror". Xamsachilik tarixidan. Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviy "Xamsa"lari. Hirot adabiy muhitida xamsanavislik. Abdurahmon Jomiy "Xamsa"sining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy beshligi birinchi turkiy "Xamsa" sifatida. *"Hayrat ul-abror"* dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Tarkibiy tuzilishi, syujet tartibi va kompozitsiyasi, maqolat va hikoyatlar tahlili. Falsafiy va tasavvufiy talqinlar.

5-mavzu: Alisher Navoiy dostonlarida an'ana va o'ziga xoslik. "Farhod va Shirin" dostonining muxtasar mundarijasi va timsollar olami. Farhod – ilohiy ishq yo'liga kirgan soliki majzub timsoli. Shirin – ilohiy mazhar. Dostondagi ramziy timsollar. Dostonda tarixiylik va badiiylik. Doston badiiyati. *«Layli va Majnun»* – pok va yuksak muhabbat ifodasi. Asardagi bosh qahramonlar hayoti. Dostonning g'oyaviy mundarijasi, timsollar olami. Majnun – ilohiy ishq yo'lidagi majzubi solik timsoli. Dostondagi boshqa timsollar. Dostonning badiiy xususiyatlari. "Sab'ai sayyor"dagi hikoyatlar tahlili. Shoh Bahrom timsoliga xos fazilat va ziddiyatlar. Dilorom – iste'dodli san'atkor, vafodor yor timsoli. Doston kompozitsiyasi. Asarning badiiy xususiyatlari. *"Saddi Iskandariy"* – falsafiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy asar. Dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Tarkibiy tuzilishi. Dostonda adolat timsoli.

6-mavzu: Alisher Navoiyning ilmiy merosi. Alisher Navoiy – adabiyotshunos. «Majolis un-nafois» tazkirasida shoirlar talqini. «Mezon ul-avzon» aruz nazariyasiga bag'ishlangan asar. "Mufradot"da muammo janriga doir masalalarning yoritilishi. Tilshunoslik asarlari. «Muhokamat ul-lug 'atayn»da ikki til mubohasasi. «Sab'atu abhur» va "Risolayi tiyr andoxtan" asarlariga munosabat. Navoiy nasrining janrlar rang-barangligi va mazmun-mundarijasi. Navoiy ijodida tarixiy nasr. Yodnomalar va ularning mundarijasi. «Xamsat ul-mutahayyirin» asarining mundarijasi. Asarda Jomiy timsoli. «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad» asarlari. Tarixiy shaxslar talqini. *"Mahbub ul-qulub" asari.* Tarkibiy tuzilishi: ijtimoiy tabaqalar, axloqiy masalalar, pand-hikmatlar. Asarning badiiy xususiyatlari.

2-modul.

NAVOIY POETIKASI

7-mavzu: Navoiy poetikasi haqida umumiy ma'lumot. Navoiy poetikasi o'zbek mumtoz poetikasining tarkibiy qismi sifatida. Kursning maqsad va vazifalari. Navoiy davrida adabiy turlar. Nazm va nasrga munosabat. Nazmning "e'joz maqomida" ekanligi.

8-mavzu: Navoiy she'riyati va janrlar poetikasi. Nasriy asarlar badiiyati. Navoiyning lirik janrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. Shoirning yoshlik lirikasiga xos janrlar. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining janr xususiyatlari. G'azal va mustazod janrlari. Musammatlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Tarkibband, tarji'band, soqiynoma va masnaviy janrlari. Kulliyotdagi kichik lirik janrlar. Ruboiylar, tuyuqlar, qit'a va fardlar.

9-mavzu: "Devoni Foniy" poetikasi. G'azallarning yaratilish xususiyatlari. Musaddas va tarkibband janrlari. "Fusuli arbaa"da to'rt fasl talqini va Husayn Boyqaro timsoli. "Sittai zaruriya" qasidalar majmuasi sifatida. Qasidalarda tasavvufiy timsollar va salaflarga munosabat masalasi. Ta'rix va lug'z janrlarining badiiyati. *Nasriy asarlar* poetikasi. "Mahbub ul-qulub" saj'ning betakror namunasi sifatida. "Munojot" asari poetikasi.

10-mavzu: Alisher Navoiy aruzi. Ruboiy vaznlari. Alisher Navoiygacha turkiy she'riyatda aruz tizimi. Navoiy devonlaridagi bahrlar miqdori. Muxlislar tartib bergan devonlarning vazn xususiyatlari. "Badoe' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlarida qo'llanilgan bahrlar. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining vazn xususiyatlari. Kulliyotning vazn ko'rsatkichlari. Ruboiy vaznlari. Axrab va axram shajarasi. Axrab shajarasiga mansub 12 vazn va ularning Navoiy ruboiylarida tutgan o'rni. Axram shajarasiga xos xususiyatlar. "Mezon ul-avzon"da aruz masalalari.

11-mavzu: Navoiy "Xamsa"sining vazn xususiyatlari. Vazn va ritmik variatsiyalar. Hazaji axrab va xafif bahrlariga xos ritmik variatsiyalar. Ularning dostonlar mazmunini ochishdagi o'rni. Ritmik urg'u va "Xamsa" dostonlari.

12-mavzu: Badiiy san'atlar va ularning Navoiy she'riyatidagi o'rni. Lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar. Badiiy san'atlarning Navoiy lirikasidagi o'rni. "Xamsa" dostonlarida qo'llanilgan badiiy san'atlar.

3-modul.
NAVOIY LIRIKASINI SHARHLAB O'QITISH

13-mavzu: Navoiy g'azallarini sharhlash mezonlari. G'azalning yaratilish davri, qaysi devonga mansubligi, mavzusi, murakkab so'zlar lug'ati, baytlarning nasriy bayoni, shohbaytlar talqini, g'azalning badiiy xususiyatlari, umumiy mazmun-mohiyati.

14-mavzu: Qit'alarni sharhlash mezonlari. Mavzu mundarijasiga ko'ra tasnif: diniy-tasavvufiy, axloqiy-ta'limiy, hasbi hol, ijtimoiy, ishqiy mavzudagi qit'alar. Qit'alarning sarlavhalari va mazmun-mohiyati o'rtasidagi uyg'unlik.

15-mavzu: Kichik lirik janrlar sharhi: ruboiy, tuyuq va fardlar.

Ruboiylarning mavzu mundarijasiga ko'ra tasnifi. Tuyuqlarda shakldosh so'zlar va ma'no tanosubi. Fardlarda Navoiy hikmatlarining aks etishi.

16-mavzu: Masnaviyni sharhlab o'qitish. Yaratilish tarixi, adresati, tarkibiy tuzilishi. Navoiy badiiy ijod haqida.

17-mavzu: Navoiy qasidalari sharhi. "Sittai zaruriya" va "Fusuli arbaa" qasidalar turkumining arxitektonikasi va kompozitsion qurilishi. "Hiloliya"qasidasining g'oyaviy mazmuni, syujeti, timsollar olami.Qasidani sharhlashda tajdidi matla' san'atining ahamiyati.

4-modul.

ALISHER NAVOIY DOSTONLARI VA NASRIY ASARLARINI SHARHLAB O'QITISH

18-mavzu: Navoiy dostonlarini sharhlash tamoyillari. "Hayrat ul-abror"ni sharhlab o'qitish. Axloqiy-didaktik, ishqiy-sarguzasht, qahramonlik, tasavvufiy-falsafiy dostonlarni sharhlashning o'ziga xos xususiyatlari. "Xamsa" dostonlarini nasriylashtirish an'anasi. "Xamsa" tabdillari. "Xamsa" sarlavhalari. "Hayrat ul-abror"ni sharhlash tajribalari. Basmala bobining qiyosiy tahlili. Hamd, munojot, na't va me'rojnomalardagi poetik tafakkur. Dostonda ko'ngil obrazining talqini. Uch hayrat sharhi.

19-mavzu: Navoiyning ishqiy dostonlarini sharhlab o'qitish ("Farhod va Shirin", "Layli va Majnun"). Muqaddimaviy boblarda shoir dunyoqarashining in'ikosi. Dostondagi shoir avtointerpretatsiyasi bilan bog'liq baytlar sharhi. Ularning doston g'oyasini ochishdagi o'rni. Hamd va na'tdagi bayon vositalarining doston mundarijasi bilan uyg'unligi. Dostondagi tun ta'rifi bobining g'oyaviy talqini. Layli va Majnun –ishq mazhari. Majnun "munojotnomasi" sharhi. Dostondagi "Ishq ta'rifi" bobining sharhi.

20-mavzu: Navoiyning sarguzasht-falsafiy dostonlarini sharhlab o'qitish ("Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy"). Muqaddimaviy boblar va doston mundarijasi orasidagi tanosub. Dostondagi yetti raqamining "sir"lari. Iltizom san'ati aks etgan baytlar sharhi. Muqaddimada salaflar dostonlariga munosabat. Ranglar, qasrlar, sayyoralar va qahramonlar ruhiy holatining tanosubi. Hamd va na'tdagi bayon vositalarining doston mundarijasi bilan uyg'unligi.Tarixiy haqiqat va badiiy taxayyul. Dostonda adolat tamoyili. Dostondagi hikmatlar sharhi. Xotimaviy bobda "Xamsa" takmili bilan bog'liq fikrlar.

21-mavzu: "Lison ut-tayr" – dostonini sharhlab o'qitish. "Lison ut-tayr"ning yaratilishi. Attor va uning "Mantiq ut-tayr"I haqida. Doston tarkibidagi hikoyatlar. Dostonda vodiylar tavsifi. Dostonning ramziy timsollar olami. Simurg' – najot timsoli.

22-mavzu: Navoiy badiiy nasrini sharhlash tamoyillari. Axloqiy-ta'limiy asarlarni sharhlash ("Mahbub ul-qulub"). Yodnomalarni sharhlab o'qitish ("Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad").

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha

ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Navoiy hayoti va ijodi zamondoshlari xotirasida.
2. Navoiy lirikasiga mansub janrlar tavsifi (har bir janrga xos xususiyatlarni tahlil qilish, "Ilk devin" va "Badoye' ul-bidoya" devonlari asosida).
3. Navoiy g'azallarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
4. "Hayrat ul-abror" dostonidagi maqolat va hikoyatlar.
5. "Farhod va Shirin" dostonining mazmuni. Timsollar tizimi.
6. "Layli va Majnun" dostonining mazmuni, yetakchi timsollar talqini. Dostonda tasavvuf masalalari.
7. "Sab'ai sayyor" dostonidagi hikoyatlar tahlili.
8. "Saddi Iskandariy" dostonining mazmun mundarijasi, yetakchi timsolar talqini.
9. Navoiyning adabiyotshunoslik, tilshunoslik va memuar asarlari.
10. Navoiy janrlari poetikasi. G'azallarning g'oyaviy-badiiy tahlili.
11. Navoiy lirikasida qo'llanilgan bahrlar. Shoir ijodidagi musta'mali matbu' vaznlar.
12. Navoiyning badiiy san'atlardan foydalanish mahorati.
13. "Xamsa" dostonlari badiiyati.
14. "Devoni Foniy" badiiyati.
15. Alisher Navoiyning ijtimoiy-didaktik g'azallaridan sharhlash.
16. Navoiy g'azallarining vazn xususiyatlari.
17. Navoiy ijodida badiiy san'atlar.
18. "Xamsa" dostonlarida ritmik variatsilar.
19. "Lison ut-tayr" dostonining mundarijasi. Dostonning tasavvufiy talqini.
20. Navoiy nasrining poetik xususiyatlari.
21. Hamd g'azallar sharhi.
22. Na't g'azallar sharhi.
23. Oshqona ("Qaro ko'zum…", "Tun aqshom keldi…") g'azallar sharhi.
24. Orifona g'azallar sharhi.
25. Kichik lirik janrlar sharhi.
26. Rindona g'azallardan sharhlab kelish.
27. Mustazodlarning g'oyaviy-badiiy tahlili.
28. Ijtimoiy qit'a va ruboiylar sharhi.
29. "Hayrat ul-abror"dostonining muqaddima boblari sharhi.
30. "Hayrat ul-abror"dagi "Ko'ngul ta'rifi" va "uch hayrat" sharhi.
31. "Farhod va Shirin"dagi Suqrot va Farhod suhbati (25-bob) sharhi.
32. "Layli va Majnun"da Majnun "munojotnoma"si sharhi.
33. "Sab'ai sayyor" dostonidagi birinchi hikoyat sharhi.
34. "Saddi Iskandariy" dostonidagi beshinchi bob sharhi.
35. "Sab'ai sayyor" va "Saddi Iskandariy" dostonlaridagi so'nggi boblar sharhi.
36. "Lison ut-tayr" dostonlaridagi hikoyatlar sharhi.

	37. "Nasoyim ul-muhabbat"dagi hikoyatlar sharhi. 38. "Tarixi muluki Ajam" va "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlari sharhi. **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar** Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Asosiy o'quv adabiyotlaridan "Alisher Navoiy hayoti va ijodi"ga oid mavzularni o'qib konspektlashtirish. 2. Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarini o'qib konspektlashtirish. 3. "G'azalda uch kishi tavridur ul nav'" misrasi bilan boshlabadigan qit'ani yod olib, yozma tahlil qilish. 4. "Xazoyin ul-ma'oni"dagi ilk g'azal tahlillaridan birini o'qib konspektlashtirish. 5. Alisher Navoiy g'azallaridan ikkitasini yod olish va ifodali o'qish. 6. "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikmatli so'zlardan o'n bayt yod olish. 7. "Mahbub ul-qulub" asarida shoirlar tasnifi va tavsifi. 8. "Mezon ul-avzon" asarida keltirilgan "surud" nav'lari haqida yozma axborot berish. 9. "Xazoyin ul-maoniy" debochasini o`qib-o`rganish va konspektlashtirish. 10. Navoiyning 10 ta ruboiysini yod olish va sharhlash. 11. "Arba`in"dagi qit`alardan yod olish va sharhlash. 12. "Hayrat ul-abror" dostonidagi basmala bobi tahliliga oid manbalar bilan tanishish. 13. "Komil inson – adabiyot ideali" kitobidan "Uch hayrat tahlili" bobini o'qish 14. N.Komilovning "Tasavvuf" kitobidan "Suqrot – komil inson timsoli" va "Ishq otashining samandari" maqolalarini o'rganish. 15. Majnun munojotidan o'nta baytni yod olib, ifodali o'qish. 16. "Xusrav va Farhod munozarasi"-dan beshta baytni yozma sharhlash. 17. "Sab'ayi sayyor" dostoni xotima bobining mazmunini yozma ifodalash. 18. "Saddi Iskandariy" dostoni xotima bobi (89)ning mazmunini yozma ifodalash. 19. S.Olimovning "Ishq, oshiq va ma'shuq" kitobi bilan tanishish. 20. "Tarixi anbiyo va hukamo" asaridan Yusuf (a.s.) qissalarini o'qish. 21. Notanish so'zlar lug'atini tuzish.
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Navoiyshunoslikning tarixiy taraqqiyoti, yutuq va kamchiliklari, istiqboli haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Alisher Navoiy asarlarining g'oyaviy olami, mazmun-mohiyati va badiiy barkamolligini anglash va shu haqda mulohaza yuritish ***ko'nikmalariga***

	ega bo'lishi; • Alisher Navoiy asarlarining bugungi va ertangi kun uchun ahamiyatini bilish ba o'rgatish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • audio va videoma'ruzalar; • taqdimot; • matn ustida ishlash.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 2019. 2. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. 1-2-jildlar / Mas'ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – T.: Sharq, 2016. 3. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. -T.: A.Qodiriy, 2002. 4. Salohiy D. Navoiyshunoslik. Alisher Navoiy g'azallarini sharhlab o'qitish. O'quv qo'llanma. – Sam.: SamDU nashri, 2019. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). Ўқув қўлланма. – Т.: TAMADDUN, 2016. 2. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.:TAMADDUN, 2016. 3. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: Манбаларнинг қиёсий-тирологик, текстологик таҳлили. –Т. Akademnashr, 2011. 4. Валихўжаев Б., Тоҳиров Қ. Ўзбек адабиёти тарихи. – Сам.: СамДУ, 2002. **Axborot manbalari (saytlar):** www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali. www. literature.uz https://www.youtube.com/watch?v=qvEGE8Gyfes https://www.youtube.com/watch?v=UbhRuLMQ8s8&t=287s https://www.youtube.com/watch?v=jWNsSXYa9zs https://www.youtube.com/watch?v=H7VDk_kh3Ko

7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2021-yil __-_____dagi __-son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar**: S.Q.Tohirov – SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti filologiya fanlari nomzodi, dotsent. A.A.Razzoqov – SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi katta o’qituvchisi, filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori PhD.
9.	**Taqrizchilar:** I.Sulaymonov – SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti filologiya fanlari doktori (DcS). (ichki) S.Yo’ldosheva – Sam VXTXMO va QTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. (tashqi)

Samarqand davlat universiteti bakalavriatning "Filologiya va tillarni o'qitish" yo'nalishi kunduzgi o'quv shakli uchun mo'ljallangan "Navoiyshunoslik" nomli fan dasturiga

T A Q R I Z

Mazkur dastur mumtoz she'riyatning muhim poetik qonuniyatlarini o'zida mujassam etgan aruz she'riy tizimi nazariyasi va amaliyoti, shuningdek, mumtoz qofiya va badiiy tasvir vositalari bilan bog'liq poetic hodisalarni o'rganish va o'rgatishga mo'ljallanganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tanlov fanini chuqur o'rganish talabalarga mumtoz adabiy matn va manbalarning badiiy barkamolligi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini mukammallroq tasavvur qilish, kelgusida adabiy matnlarga oid ilmiy izlanishlar olib borishlarida yordam beradi.

Ushbu dasturda "Navoiyshunoslik" fani ma'ruza mashg'ulotlarilarining qisqacha mazmuni, amaliy mashg'ulot va seminar mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun uslubiy tavsiyalar va taxminiy mavzular hamda talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun topshiriqlar mazmuni va ularni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar o'z ifodasini topgan, shuningdek, foydalanishga mo'ljallangan adabiyotlar berilgan.

Ushbu ""Navoiyshunoslik" nomli fan dasturi o'rganiladigan masalalarning mazmun-mohiyati, mantiqiy ketma-ketligi, axborot-uslubiy ta'minoti, kredit me'yorlari va talablarining aniq belgilanganligi nuqtai nazaridan belgilangan talablarga javob beradi. Uni ta'lim jarayoniga tadbiq qilish mumkin deb hisoblayman.

S.Yo'ldosheva

Sam VXTXMO va QTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Samarqand davlat universiteti bakalavriatning "Filologiya va tillarni o'qitish" yo'nalishi kunduzgi o'quv shakli uchun mo'ljallangan "Navoiyshunoslik" nomli fan dasturiga

T A Q R I Z

Bugungi kunda "G'azal mulkining sultoni" turkiy tildagi adabiyot va madaniyatni yuksak pag'onaga ko'targan Alisher Navoiy shaxsiyati va adabiy me'rosini alohida fan doirasida o'rganishning ahamiyati hech kim uchun sir emas. Alisher navoiy asarlari misolida mumtoz adabiy matnlarning poetik qonuniyatlarini o'rganish va o'rgatishga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Zero bo'lajak filolog-mutaxassis va adabiyotshunos uchun mumtoz she'riyat qonuniyatlarini bilish, she'riy matnlar badiiyati va jozibasini tushunish va tushuntira olish muhim ahamiyat kasb etadi. SamDUda bu masalada uzoq yillik tajriba mavjud bo'lib, ushbu o'quv dasturi mazkur boy tajribalar hamda oliy ta'limning yangi talablari, modul-kredit tizimi me'yorlarini inobatga olgan holda tuzilgan.

Ushbu dasturda mumtoz she'riyat, dostonchilik, nasrning eng muhim poetik qonuniyatlarini o'zida mujassam etgan Alisher Navoiy adabiy me'rosi asosida mavzu, mazmun, g'oya, obrazlar poetikasi, aruz she'riy tizimi nazariyasi va amaliyoti, shuningdek, mumtoz qofiya va badiiy tasvir vositalari bilan bog'liq poetik hodisalarni o'rganish va o'rgatish rejalashtirilgan. Mazkur mutaxassislik fanini chuqur o'rganish talabalarga mumtoz adabiy matn va manbalarning badiiy barkamolligi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini mukammallroq tasavvur qilish, kelgusida adabiy matnlarga oid ilmiy izlanishlar olib borishlarida yordam beradi.

Ushbu dasturda "Navoiyshunoslik" fani ma'ruza mashg'ulotlarilarining qisqacha mazmuni, amaliy mashg'ulot va seminar mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun uslubiy tavsiyalar va taxminiy mavzular hamda talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun topshiriqlar mazmuni va ularni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar o'z ifodasini topgan, shuningdek, foydalanishga mo'ljallangan adabiyotlar berilgan.

Ushbu "Navoiyshunoslik" nomli fan dasturi o'rganiladigan masalalarning mazmun-mohiyati, mantiqiy ketma-ketligi, axborot-uslubiy ta'minoti, kredit me'yorlari va talablarining aniq belgilanganligi nuqtai nazaridan belgilangan talablarga javob beradi. Uni ta'lim jarayoniga tadbiq qilish mumkin deb hisoblayman.

I.Sulaymonov: **SamDU, mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti, f.f.d.**